

**TEXNIKUM BITIRUVChILARINI OLIY TA'LIM MUASSASASI  
BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHIGA SUHBAT ASOSIDA QABUL  
QILISH UChUN BAHOLASH MEZONLARI**

Suhbat jarayonida bitiruvchilarning har biriga

1. Mamlakatda o'z sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish.

2. Bakalavriat ta'lism yo'naliшини танлашда мотивасия (сога касбining мohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko'rsatish).

3. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o'qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas'uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o'z ustida ishslash va ijodkorlik qobiliyatları).

4. Tanlangan bakalavriat ta'lism yo'naliшини соҳасидаги bilim va kasbiy ko'nikmalarning mavjudligi bo'yicha jami to'rtta savol beriladi.

Har bir variantda 4 tadan savollari mavjud bo'lib, har bir to'g'ri javob uchun 25 ball beriladi. Savollar uchun eng yuqori ball - 100 ballni tashkil etadi. Suhbat natijalari quyidagi mezonlar bo'yicha to'plagan umumiy bali quyidagicha baholanadi.

Muayyan ta'lism yo'naliishi (guruh) bo'yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan to'ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish varaqlaridagi ballar hisoblab chiqiladi va shu asosida ushbu Nizomga 2-ilovaga muvofiq namunaviy shakldagi bitiruvchi bilan o'tkazilgan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i (keyingi o'rnlarda - suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'i) to'ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolari tomonidan qo'yilgan ballarning o'rtachasi 67 ball va undan yuqori bo'lganda abiturient suhbatdan o'tgan hisoblanadi.

Muayyan ta'lism yo'naliishi (guruh) bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalariga ko'ra suhbatdan o'tganlar ro'yxati shu kunning o'zida abiturientlarga o'qib eshittiriladi.

Oliy ta'lism muassasasida suhbatlar o'tkazilishi davrida belgilangan tartibda apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish uchun apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

**Abiturientning bilimi quyidagi mezonlar asosida:**

<b>Nº</b>	<b>Mezonlar</b>	<b>Baho</b>	<b>Ball</b>
1	Abiturient mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, tanlagan sohasining mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda soha bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda	A'lo	90-100
2	Abiturient mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, tanlagan sohasining mohiyatini	Yaxshi	78-89

	tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda soha bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda		
3	Abiturient olgan bilimini amalda qo‘llay oladi, sohaning mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda soha bo‘yicha tasavvurga ega deb topilganda	Qoniqarli	67-77
4	Abiturient tanlagan sohasini o‘zlashtirmagan, sohaning mohiyatini tushunmaydi hamda tanlagan sohasi bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda	Qoniqarsiz	0-66

Apellyatsiya shikoyatlari suhbat natijalari e’lon qilingan vaqtidan boshlab 24 soat ichida oliy ta’lim muassasasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri yozma shaklda yoki Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn shaklda qabul qilinadi va appelyatsiya komissiyasi tomonidan murojaat qilganlarning sonidan kelib chiqqan holda bir kundan uch kungacha bo‘lgan muddatda videoyozuv asosida ko‘rib chiqiladi.

Suhbat natijalariga ko‘ra talabalikka tavsiya etilganlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar natijalar e’lon qilingan kundan boshlab uch kun muddatda oliy ta’lim muassasasi rektori (filial direktori) tomonidan bo‘ysunuvi bo‘yicha vazirlik, idoraga taqdim etiladi.

Suhbat komissiyasining suhbat natijalarini qayd etish hamda suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varaqlari uch yil oliy ta’lim muassasasida saqlanadi.